



SANOAT KORXONALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF IMPROVING THE FINANCIAL MECHANISM FOR INCREASING THE COMPETITIVENESS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES

¹Abdullayev Nuriddin
Isom o'g'li

¹Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya Annotation

Uzb. - Maqolada sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashning ilmiy-nazariy asoslari tadqiq etilgan. Uslubiy asosga ko'ra sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning moliyaviy mexanizmini tashkiliy tizimi va moliyaviy usullarining tegishli xususiyatlari ochib berilgan. Davlat moliya siyosati doirasida mahalliy raqobatbardosh ishlab chiqarishni tashkil etish va hududiy sanoat ishlab chiqarishini qo'llab-quvvatlashning mavjud samaradorligi baholangan. Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan moliyalashtirish shakllari samaradorligini oshirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

Eng. - The article examines the scientific and theoretical foundations of ensuring the competitiveness of industrial enterprises. On a methodological basis, the relevant features of the organizational system and financial methods of the financial mechanism for increasing the competitiveness of industrial enterprises are disclosed. Within the framework of the State Fiscal Policy, the existing effectiveness of organizing local competitive production and supporting regional industrial production was assessed. Scientific proposals and practical recommendations are given on improving the effectiveness of forms of financing aimed at increasing the competitiveness of industrial enterprises.

Kalit so'zlar: Keywords:

❖ *moliyalashtirish tamoyillari, moliyalashtirish mexanizmi, moliyalashtirish shakllari, moliyaviy strategiya, davlat moliya siyosati, soliq imtiyozi, investitsion faoliyat, investitsion jarayon, investitsion salohiyat.*

❖ *principles of financing, financing mechanism, forms of financing, financial strategy, state financial policy, tax credit, investment activity, investment process, investment potential.*

Kirish.

So'nggi yillarda jahonda sanoat ishlab chiqarishini optimallashtirish va operatsion uzluksizligini ta'minlash, texnologik tizimini boshqarishda AT va bulutli hisoblash mexanizmlarini shakllantirish, axborot almashinuvining kiber-fizik tizimlari orqali sanoatning texnologik imkoniyatlarini kengaytirish, ishlab chiqarish siklining har bir

bosqichini avtomatlashtirish hisobiga moddiy mehnat sarfini qisqartirish orqali tovar ishlab chiqarish jarayonining raqobatdoshligini ta'minlashga yuqori darajada e'tibor berilmoqda [13]. Bu kabi qator holatlar sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish omillaridan maqsadli foydalanish jarayonini kompleks tizimini shakllantirishning moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, moliyalashtirish

shakllarini tuzilmaviy tarkibini optimallashtirish hisobiga texnologik taraqqiyotni investitsion faolligini ta'minlash, "Sanoat-4" konsepsiyasini amaliyotga joriy etishni moliyalashtirish jarayonlarining tegishli mexanizmlari o'rtasidagi integral bog'liqlikni ta'minlash orqali sanoat ishlab chiqarishining faktorial rentabelligini oshirishni taqozo etadi.

O'zbekistonda sanoat ishlab chiqarishining progressiv o'sish ko'rsatkichlarini ta'minlash, sanoat ishlab chiqarishini uzoq muddatli o'sish nuqtalarini shakllantirish orqali sanoatning raqobatdoshlik strategiyasini ta'minlash jarayoni "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 22-maqsadida aks etgan bo'lib, mazkur maqsadga muvofiq milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirishga doir qator vazifalar belgilangan [2]. Bu kabi qator vazifalarning tizimli ijrosini ta'minlash mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarish modelining iste'mol va moliya bozori o'rtasidagi integratsion aloqadorligini kengaytirish, sanoat ishlab chiqarishining tarkibini diversifikatsiyalash hisobiga investitsion faolligini ta'minlash, sanoatning hududiy o'sish nuqtalarida yangi loyihalarni amalga oshirishni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilgan tizimini shakllantirish orqali sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashning moliyaviy mexanizmini qo'llab-quvvatlashga asoslangan chora tadbirlarning fundamental asoslarini tadqiq etishning dolzarbligini asoslashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning moliyaviy mexanizmi va uning tashkiliy tizimini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan jarayonlarni o'rganish iqtisodiyot sohasidagi keng ko'lamli tadqiqot

yo'nalishlaridan biri hisoblanib, mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar asosi mamlakat iqtisodiyotini taraqqiy ettirishga yo'naltirilgan moliyaviy modelning tizimli rivojlanish jarayonlariga xizmat qiladi. O'z navbatida, mazkur tadqiqotlarning fundamental asosi sanoat korxonalarini moliyalashtirish tamoyillarini korxona iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlariga muvofiqlashtirish, davlat va moliya-kredit tashkilotlari tomonidan sanoat korxonalarini moliyalashtirish shakllarini kapitalning takror ishlab chiqarish jarayoniga yo'naltirish orqali ichki va tashqi doirada raqobatbardoshligi ta'minlash omillarining tizimli integratsiyasini ta'minlashga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xorij iqtisodchi olimlaridan J.A.Bernal-Conesa, A.J.Briones-Penalver, C.De Niyeves-Niyetolarning bu boradagi tadqiqotlari mavjud muammolarning fundamental asoslarini o'rganishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotlarda mamlakat sanoat korxonalarini moliyalashtirish borasida umumiy strategiyani qabul qilish jarayonlarini korxonalar raqobatbardoshligiga ta'siri o'rganilgan. Mazkur bog'liqlikning ko'p omilli korrelyatsion-regression tahlil natijalari tegishli jarayonda trend bog'liqlik mavjudligini asoslashga xizmat qiladi [3]. N.K.Yerofeyeva tadqiqotlarida investisiya jarayonlarini davlat tomonidan rag'batlantirish sanoat korxonalari faoliyatini modernizatsiya qilish va raqobatbardoshligini oshirish, mahalliy innovatsion ishlab chiqarishni rivojlantirish, hududiy darajada sanoat ishlab chiqarishning texnologik zanjirini shakllantirishga asos yaratishi qayd etiladi. Shu boisdan davlatning sanoat korxonalariga soliq yukini pasaytirish, investitsion faoliyatga yo'naltirilgan dasturlari doirasida soliq imtiyozlarini kengaytirish orqali raqobatbardoshligini ta'minlashga doir chora tadbirlarni amalga oshirish taklif etiladi [4]. V.V.Isaychenkova tadqiqotlarida "Sanoat 4.0" konsepsiyasiga muvofiq sanoat korxonalarining raqobatbardoshligi ishlab

chiqarishning barcha bosqichlarida raqamli texnologik tizimni shakllantirish jarayonlariga bog'liqligi e'tirof etiladi. Ishlab chiqarishning raqamli texnologik tizimi sanoat korxonalarining foydasini maksimallashtirish va qo'shilgan qiymatni oshirish omillarini asoslashga xizmat qilishi qayd etilgan. Ishlab chiqarishni raqamli texnologik tizimini moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayonlarini davlatning moliya siyosati orqali muvofiqlashtirishga doir ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan [5]. J.A.Mingaleva, Yu.V.Starkov, A.V.Tarasov tadqiqotlarida mamlakatda sanoat mahsulotlariga nisbatan import o'rnini bosish va mahalliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish zarurati qayd etiladi. Davlatning ijtimoiy-iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarini moliyalashtirish jarayonlarini kengayishi budjet xarajatlarining ortib borishiga sabab bo'lganligi bois, import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishga yo'naltirilgan korxonalarni moliyalashtirishning alternativ matritsasini qurishga doir tegishli tavsiyalar shakllantirilgan[6]. Ye.A.Prixodko, Ye.L.Ilina tadqiqotlarida sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning moliyaviy vositalari va uning amal qilish mexanizmini nazariy-uslubiy asoslari o'rganilgan. Tadqiqot davomida potensial raqobatbardoshlikni ta'minlash omillarini o'zaro kombinatsiyasini muvofiqlashtirishni moliyalashtirish manbalarini tizimli diversifikatsiyasini ta'minlashga alohida ustuvorlik berishga doir chora tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi [7].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan N.R.Kuziyeva tadqiqotlarida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirishda soliq imtiyozlarini tashkil etish orqali hududiy darajada sanoat salohiyatidan samarali foydalanish imkoniyatlari borasida taklif va amaliy tavsiyalar umumlashtirilgan [8].

B.O.Tursunov, H.A.To'xtashevalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda mamlakatimiz banklari tomonidan kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini ta'minlashga yo'naltirilgan innovatsion salohiyatdan foydalanish imkoniyatlari tizimlashtirilgan [9]. O.I.Begmullayev sanoat korxonalarini bozor sharoitlariga moslashtirish jarayonida korxonalarning investitsion salohiyatini kengaytirish hisobiga ish va bozor faolligini oshirish, umumiy natijadorlik esa yalpi ishlab chiqarish hajmida o'z aksini topishi qayd etilgan [10]. M.Ashurov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishlarini shakllantirishda moliyaviy strategiyani to'g'ri tashkil etish imkoniyatlari borasida zaruriy taklif hamda ilmiy tavsiyalar berilgan [11].

Yuqoridagi ilmiy tadqiqotlar sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlashning moliyaviy mexanizmlari samaradorligini oshirish va uning tashkiliy asoslarini muvofiqlashtirishga yo'naltirilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etsada, mazkur tadqiqotlarda sanoat korxonalari raqobatbardoshligini ta'minlash mexanizmining uslubiy asoslariga e'tibor berilmaganligini ta'kidlash o'rinli.

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada mantiqiy abstraksiya, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, statistik tahlil usullaridan keng foydalanilgan bo'lib, tadqiqot jarayonida foydalanilgan nazariy hamda statistik materiallarning ishonchliligi vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.


Tahlil va natijalar muhokamasi.

Sanoat korxonalari faoliyatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning keng turdagi shakllari mavjud bo'lib, asosan moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllarini tegishli vektorli korxona faoliyatini yo'lga qo'yish va ishlab chiqarishning maqsadli rentabelligini

ta'minlash jarayonlariga nisbatan yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi. Ammo, so'nggi yillarda dunyoning ko'plab mamlakatlarida sanoat ishlab chiqarishi raqobatbardoshligini oshirishda mahalliy ishlab chiqarishning innovatsion taraqqiyotini ta'minlashga yo'naltirilgan texnologik tizimni moliyaviy qo'llab-quvvatlash jarayoniga alohida e'tibor berilayotgan bo'lib, mazkur jarayonning muayyan ifodasi davlat tomonidan sanoat korxonalari faoliyatini rag'batlantirishning moliyaviy usullarini takomillashtirish (sanoat korxonalarining ilmiy-texnik taraqqiyotini ta'minlash jarayonida soliq imtiyozlari ro'yxatini kengaytirish, rezident korxonalarga bank kreditlari ajratish uchun davlat kafolatlarini berish, kredit foiz stavkalarini subsidiyalashning moliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish orqali kredit summasi va hisoblangan foizlarni bosqichma-bosqich to'lash va boshqalar)da o'z aksini topadi.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish doirasidada global iqtisodiy-moliyaviy vaziyatni va bozor konyunkturasi tahlil qilish asosida mahalliy ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlarga ta'siri bo'yicha xatarlarni baholash hamda ularning salbiy ta'sirini yumshatish, bazaviy sanoat tarmoq korxonalarini transformatsiya qilish, ularda mahsulot va xizmat tannarxini pasaytirish, moliyaviy barqarorligini va

operatsion samaradorligini oshirish, hududlarda sanoatni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash bo'yicha choralar ko'rish, sanoat zonalarini va yangi ishga tushiriladigan yirik korxonalarining infratuzilma bilan ta'minlanganlik holatini tahlil qilish va ularni moliyalashtirish ishlarini muvofiqlashtirish kabi qator strategik vazifalari belgilangan [1]. Mazkur strategik vazifalarni amalga oshirishning moliyaviy va ma'muriy mexanizmlarini ishlab chiqish davlatning moliyaviy va sanoat siyosatini muvofiqlashtirishni talab etadi. Moliyaviy va sanoat siyosatini muvofiqlashtirish sanoat korxonalarining innovatsion faoliyatiga doir moliyaviy va soliq imtiyozlarini shakllantirish, mazkur imtiyozlarni sanoat ishlab chiqarishining o'sishini rag'batlantirish tizimiga yo'naltirishga doir chora-tadbirlarni tizimlashtirishni talab etadi. Mavjud imtiyozlar tizimini amal qilish xususiyatlari sanoat korxonalarining ish va bozor faolligini ta'minlash jarayonlarida namoyon bo'ladi. Sanoat korxonalarining bozor faolligi sanoat ishlab chiqarishini investitsiyalash jarayoni bilan bevosita bog'liq munosabatlarda o'z aksini topadi. 2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushining tegishli tahlili, bu boradagi fikrimizni asoslashga xizmat qiladi.



1-rasm. 2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi [12]

1-rasm ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, 2018-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi 42 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda bu ko'rsatkich 12,7 foizga pasayib 29,3 foizni tashkil etgan. 2020-yilda 2019-yilga nisbatan mazkur ko'rsatkich 11,5 foizga qo'shimcha o'sish sur'atini qayd etgan. 2021-yilda esa, 10,8 foizga pasayib 38 foizga yetgan. 2022-yilda 2,6 foizga ortgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich, 2022-yilga nisbatan 8,8 foizga pasaygan. 2024-yilda 8,7 foizga pasayib, 23,1 foizni tashkil etgan.

2018-2024-yillarda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushiga doir tahlil natijalari quyidagi xulosalarni umumlashtirish imkoniyatini beradi:


- asosiy kapitalga investitsiyalarda moliyalashtirishning alternativ shakllaridan foydalanishni kengaytirish jarayoni korxona va aholining o'z mablag'lari ulushini investitsion sarflardagi darajasini o'rtacha sur'atlarda saqlanib qolishida ta'sir ko'rsatgan;

- 2018-2024-yillarda 2000-2010-yillarga nisbatan asosiy kapitalga investitsiyalarda korxona va aholining o'z mablag'lari ulushi qariyb 1,5 barobarga ortgan bo'lib, mazkur natijadorlikni iqtisodiy faollik ko'rsatkichinining o'sish ko'rsatkichlari orqali izohlash mumkin;

- ichki va tashqi bozorlarda o'zgaruvchan talabni shakllanish xususiyatlariga muvofiq korxona moliyaviy strategiyasida moddiy texnik tizimini modernizatsiyalash, innovatsion ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlarida rentabellikni ta'minlash jarayonlariga nisbatan e'tiborning ortishi;

- davlat tomonidan qulay investitsiya muhitini yaratish jarayonida korxonalarning o'z mablag'laridan foydalanish jarayonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarining kengaytirilishi;

- rezidentlar tomonidan ichki bozorda barqaror o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan segmentni egallashga yo'naltirilgan investitsion loyihalarni amalga oshirishni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan moliyaviy sarflarning ortishi va boshqalar.



2-rasm. Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishda moliyaviy mexanizmining tashkiliy tizimi

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning moliyaviy mexanizmini tashkiliy

tizimi sanoat tarmoqlarida korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning bozor

mexanizmiga asoslangan ustuvorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Sanoat tarmoqlarida korxonalar faoliyatini moliyalashtirishning bozor mexanizmiga asoslangan ustuvorligini ta'minlash sanoatning hududiy darajadagi kombinatsiyasini muvofiqlashtirishga xizmat qiladigan yo'l xaritasini ishlab chiqish talab etadi. O'z navbatida, mazkur yo'l xaritada sanoat korxonalarini faoliyatini moliyalashtirish shakllariga doir pereferensiyalni tadbqiq etishni amalga oshirish mexanizmi shakllantiriladi. Ushbu jarayonda tegishli mexanizmni ta'minlash va uning amal qilish tizimiga doir munosabatlarni amalga oshirishda aktivlarning real va nominal bozor baholari o'rtasidagi trend bog'liqlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Sanoat tarmoqlarida korxonalar faoliyatini moliyalashtirishni bozor mexanizmiga asoslangan tizimini shakllantirish, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishning investitsion imtiyozlar tizimini kengaytirish ishlab chiqarish omillarining harakat traektoriyasini optimallashtirishga imkon beradi. Shu boisdan doimiy tartibda sanoat ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanish darajasini baholash tizimini shakllantirish va uni xalqaro tizimga integratsiyasini ta'minlash talab etiladi. Natijada, sanoat ishlab chiqarishining innovatsion rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan investitsiyalardan samarali foydalanish imkoniyati kengayadi. Tizimda korxonalarning raqobatbardoshlik strategiyasini moliyalashtirish jarayonini diversifikatsiyalash orqali investitsion jozibadorligini ta'minlashga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning moliyaviy mexanizmini amalga oshirishda sanoat tarmoqlarining tashkiliy asosini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan axborot tizimini shakllantirish lozim. Hozirda, mamlakatimizda sanoat tarmoqlarining tashkiliy asosini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan axborot tizimining yo'lga

qo'yilmaganligi bois, sanoatda moliyaviy oqimlar harakatini shakllantirish va samaradorligini ta'minlashga doir kompleks muammolar vujudga kelmoqda. Mazkur muammolarning muayyan ifodasi moliyaviy risklarni yuzaga kelish ehtimolini oshirish va hududlarning sanoat xavfsizligini ta'minlash jarayonlarida namoyon bo'lmoqda. Shuningdek, sanoat tarmoqlarining tashkiliy asosini muvofiqlashtirishga yo'naltirilgan axborot tizimini tashkil etish sanoat korxonalarini moliyaviy rag'batlantirishning tarmoq va hududiy dasturlarini ishlab chiqish hamda ijrosini ta'minlashga doir vazifalarning amaliy ijrosini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizda sanoat ishlab chiqarishining zaruriy infratuzilmasini modernizatsiyalash, innovatsion texnologik tizimini kengaytirish, ishlab chiqarish va iste'mol bozori o'rtasida integratsion bog'liqlikni ta'minlashning kengaytirilgan paltformasini shakllantirish imkoniyatini beradi. Sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirishning istiqbolli yo'nalishlarini ta'minlash jarayonida sanoat ishlab chiqarishning moliyaviy mexanizmini tashkiliy tizimini shakllantirish bilan bir qatorda moliyalashtirish jarayoniga nisbatan kompleks tizimli yondashuvni amalga oshirishda quyidagi vazifalarni amaliy ijrosiga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- sanoatning tuzilmaviy tarkibini o'zgartirishga yo'naltirilgan moliyaviy imtiyozlar tizimini kengaytirish orqali sanoat ishlab chiqarishining qo'shilgan qiymat zanjirini optimallashtirish;

- sanoat korxonalarining mamlakat doirasida shakllangan texnologiyalar almashinuv tizimiga integratsiyasini ta'minlash jarayonida innovatsion faollikni oshirishga xizmat qiladigan investitsion loyihalar porfelini kengaytirish;

- mahalliy sanoat ishlab chiqarishni modernizatsiyalash orqali mamlakatda

investitsion faollikni oshirish omillarining integratsion tizimini muvofiqlashtirish;

- davlat tegishli moliyalashtirish shakllarini kengaytirish hisobiga sanoat tarmoqlaridagi nomutanosibliklarni bartaraf etish;

- takror ishlab chiqarishni ta'minlashning tarmoq tuzilishini optimallashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnik faoliyatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash orqali ichki va tashqi bozorlarda raqobatdosh mahsulot ishlab chiqarishni kengaytirish va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi "Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-169-sonli Farmoni.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.

3. Bernal-Conesa, J. A., Briones-Peñalver, A. J., & de Nieves-Nieto, C. (2017). Impacts of the CSR strategies of technology companies on performance and competitiveness. *Tourism & Management Studies*, 13(4), 73-81. https://tmstudies.net/index.php/ectms/article/viewFile/1043/pdf_72

4. Ерофеева Н.К. Финансовые методы повышения конкурентоспособности предприятия: диссертация... кандидата экономических наук: 08.00.10 / Ерофеева Наталья Киреевна; [Место защиты: Рос. акад. нар. хоз-ва и гос. службы при Президенте РФ]. Москва, 2013. 169 с.

5. Исайченкова В.В. Обеспечение повышения конкурентоспособности промышленного предприятия в условиях цифровой экономики // *Электронный научный журнал «Век качества»*. 2019. №2. С. 91-105.

6. Мингалева Ж.А., Старков Ю.В., Тарасов А.В. Повышение конкурентоспособности предприятий на основе выбора стратегических альтернатив развития // *Изв. Саратов. ун-та Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право*. 2019. №2.

7. Приходько Е.А., Ильина Е.Л. Финансовые инструменты повышения конкурентоспособности компании // *E-Scio*. 2019. №6 (33).

8. Kuziyeva N.R. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar faoliyatini rag'batlantirishning moliya-kredit mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. T.: O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. 2008. – 41 b.

9. Tursunov B. O., Tokhtasheva H. A. Q. Improving the credit mechanism to increase the competitiveness of the national economy // *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*. – 2021. – T. 3. – №. 04. – С. 73-78.

10. Begmullayev, O. I. (2024). Sanoat korxonalarini bozor sharoitlariga moslashtirish samaradorligini oshirish. <https://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/3217>

11. Ashurov M. (2020). Risk muhitida sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishini ta'minlash yo'nalishlari. *Экономика и инновационные технологии*, (3), 105-114. https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11430

12. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy axborot sayti ma'lumotlari - www.stat.uz

13. <https://www.microsoft.com/en-us/industry/manufacturing/resources/industry-4-0-technologies>